

JADIDCHILIK G'UYALARI TARG'IBOTINING IQTISODIY MUOMMOLARGA NISBATAN IJTIMOIIY- FALSAFIY TAHLILI



Patiyev Xoldor Ikromovich

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Abdurauf Fitrat, jadidchilik harakatining muhim siymosi, o'z asarlarida Buxoro amirligining iqtisodiy muammolarini to'xtalib, tanqid qilib, ularni isloh qilish shartligi haqida fikr bildiradi. U xalqni ilm-fan va madaniyatga yo'naltirish, iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishni zarur deb biladi. Fitrat "Hind sayyohi bayonati" asarida Buxoro amirligining tabiiy boyliklaridan samarali foydalanmaslik va qishloq xo'jaligining qoloqligini tanqid qiladi. U iqtisodiy taraqqiyot uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xalqni iqtisodiy manfaatdorlikka undash lozimligini ta'kidlaydi. Buxoro dehqonchiligining muammolarini tahlil qilib, amaldorlarning adolatsizligi, eskicha uskunalar va yetarli dori-darmonlar etishmasligini ko'rsatadi.

Fitrat va F.Xo'jaev va boshqa jadidlar qishloq xo'jaligini isloh qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish, davlat dasturlari orqali agrar islohotlarni amalga oshirishga harakat qilganlar. Ularning g'oyalari nafaqat Buxoro, balki butun Turkiston uchun muhim iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni nazarda tutgan.

Shuningdek, jadidlar tog'-kon sanoatini rivojlantirish, savdo va dehqonchilikni yaxshilash bo'yicha ko'plab islohotlar loyihalarini ishlab chiqdilar, lekin o'sha davr sharoitlari bu islohotlarni amalga oshirishga to'sqinlik qildi. Fitrat va uning zamondoshlari tomonidan ilgari surilgan g'oyalar, ularning iqtisodiy masalalardagi chuqur tahlillari hammavaqt foydali hisoblanadi.

Kalit so'z: agrar islohot, irrigatsiya, tog'-kon sanoati, Buxoro jadidchiligi, yer resurslari, hunarmandchilik, iqtisodiy tenglik, ilg'or texnologiyalar, qishloq xo'jaligi, mustaqil iqtisodiyot, xalq farovonligi, yevropa madaniyati

Asosiy qism: Buxoro jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Abdurauf Fitrat o'z asarlarida Buxoro amirligining iqtisodiy muammolarini keskin tanqid qilib, ularni isloh qilish zarurligini ko'rsatib bergan. Fitrat Buxoro amirligini mustaqil taraqqiyot yo'liga olib chiqishning ikki yo'lini taklif qiladi va bu g'oyani amalga oshirish uchun qattiq kurashadi.

Mustaqillikka erishishning birinchi yo'li – xalqni bilimli va ma'rifatli qilish, uning barcha qatlamlari o'rtasida ilm nurini tarqatish, aholiga tarixda hamisha erkin va mustaqil yashashga intilgan buyuk xalq ekanligini singdirish, jahon xalqlari erishgan ma'rifat va madaniyat, shuningdek, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotdan bahramand bo'lish, odamlarda vatan taqdiri va istiqboli uchun mas'uliyat tuyg'usini uyg'otish, mamlakatni xomashyo yetkazib beruvchisi bo'lib qolmaslikka undash va ularda iqtisodiy tafakkur tuyg'usini rivojlantirish deb biladi.

Ikkinchi yo'l – Buxoro xalq xo'jaligini yaratish, mustaqil iqtisodiyot asoslarini barpo etish, iqtisodiy tenglik va manfaatdorlik tamoyili asosida jahon xo'jaligi bilan hamkorlik va integratsiyaga kirishish ekanligini ta'kidlagan.

Abdurauf Fitrat o'z vatanini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'liga, xalqni farovon turmush tarziga olib borishning asosiy yo'li – Yevropa ilm-fani, madaniyati, texnikasi, texnologiyasi, sarmoyasi va ilg'or tajribasini Turkistonga keng ko'lamda va tez fursatda joriy etishdir, deb ta'kidlaydi.

Bu yo'lda ikkilanmaslik, chet el ilm-fan va texnikasini joriy etishdan qo'rqmaslik, sarosimaga tushmaslik, or deb bilmaslik kerakligini aytgan. Chunki, deydi olim, Yevropa xalqlari nihoyatda qoloq va qashshoq bo'lgan bir davrda Sharq ilm-fani, madaniyati, tajribasi va amaliyotidan foydalangan holda yuksak taraqqiyotga erishdilar. Zero, bundan 1000 yil avval Yevropa xalqlari iqtisodiy va ma'naviy jihatdan qoloq bo'lgan davrda Sharq xalqlari insoniyat sivilizatsiyasining ancha yuqori pog'onasida bo'lganlar.

Abdurauf Fitratning bu boradagi xizmatlarini professorlar N.Hakimov, D.Amridinovalar shunday ta'riflaydi: "Jadidchilik harakatining falsafa fani doirasida ijtimoiy, iqtisodiy, ma'rifiy,

axloqiy, ma'naviy va estetik jihatlari Abdurauf Fitratning milliy uyg'onish va iqtisodiy yuksalish konsepsiyasi, ya'ni moddiylashuvining iqtisodiy, ma'rifiy, intellektual asoslarini "Hind sayyohi bayonati" asarida ochib bergan"¹.

Fitrat o'zining yuqorida nomi keltirilgan asarida iqtisodiy g'oyani ishlab chiqib, unda amirlikning tabiiy xom-ashyo manbalarga juda boy ekanligi, ular hozircha yashirinib yotganligi, bu yer osti boyliklarini o'zlashtirish, milliy hunarmandchilikni jahonning ilg'or mamlakatlaridan texnologiya keltirib zamonaviy asosda tubdan qayta qurish, xorijiy sarmoya, ilm-fan texnika yutuqlarini milliy iqtisodiyotni yaratishga dadil jalb etishga oid qarashlar ilgari surilgan².

Abdurauf Fitrat "Hind sayyohi bayonati" asarida Buxoro amirligida mang'itlar sulolasidan meros qolgan qoloqlik, bid'at, ajnabiy fabrikantlar-u mahalliy boylar, savodsiz muftilar-u bir-birini g'ajishga tushgan mahalliy tojirlar, qora kunini "taqdiri ilohiy" deb bilgan omi kosib-u dehqonlarni qattiq tanqid qiladi, ularni islohotga chorlaydi, millat g'ururi, boyligi, hunarmandchiligi-yu amaliy san'atini asrashga va yuksaltirishga chaqiradi. Shu qatori, u Buxoro amirligiga qarashli yerlardan unumli foydalanish haqida jon kuydirib, "agar shu Shahrisabz yerlari Yapon elida bo'lganida edi, zar ekib, zar undirar edilar", deb yozadi. Bu o'rinda "Hind sayyohi bayonati" asarida ilgari surilgan masalalar shunchaki Movarounnahr doirasida emas, jahon miqyosida hal etilganligini ko'ramiz. Bu albatta, Fitratning iqtisodiy mazmundagi dunyoqarashi, el uchun kuyinishi, o'z xalqi, iqtisodiy qoloqligi sabablarini chuqur idrok qila olganligidan dalolatdir.

Abdurauf Fitrat ham Buxoro qishloqlarida iqtisodiy-ijtimoiy ahvol g'oyat achinarli ekanligini ta'kidlab, buning boisi qishloq xo'jaligining zamonaviy talab va taraqqiyotidan juda orqada qolish deb bildi.

U yerdan samarali foydalanilmaslikning sababi quyidagicha deb yozadi: "Qarshi xalqlari yerlarning hosil berishi darajasida mehnat qilmaydilar, ya'ni yerlarning imkoniyaticha hosil ololmaydilar"³. Yuqoridagi jumalardan shu narsa ma'lum bo'ladiki yerdan samarali foydalanilmaslikning sababi yerga hosil berish darajasida mehnat qilinmasligi ya'ni yerlarning imkoniyaticha hosil olinmasligidadir deb ko'rsatadi.

A.Fitrat Turkiston qishloq xo'jaligida ehtiyojlarni qoplash darajasida unum olinmaslik sabablarini o'rganib chiqib, uning uchta asosiy sababi borligini aniqladi:

Birinchi sabab – amaldorlarning dehqonlarga nisbatan adolatsiz munosabatlarda bo'lishlaridir. Bu adolatsizlik raiyatdan soliq yig'ishda namoyon bo'ladi;

Ikkinchi sabab – qishloq xo'jaligida unumdorligi past asbob-uskunalar (ishlab chiqarish vositalaridan) foydalanib kelinayotganligidir. Olingan daromad texnikadan foydalanish xarajatlarini ham qoplamasligida bu namoyon bo'ladi;

Uchinchi sabab – Yerga quvvat beradigan sanoat dori-darmonlarining yetarli ishlatilmayotganidir⁴. A.Fitratning yuqoridagi fikrlaridan shu narsa ayon bo'ladiki, Turkiston dehqonchiligida ishlab chiqarishning ehtiyojni qoplash darajasida yetishmasligining birinchi sababi buxorolik amaldorlarning maoshlari taxminan dehqonning hosiliga qarab olganligidir. Masalan, dehqonning bitta xirmoni bo'lsa, amaldor bu bug'doy miqdorini o'z xohishiga ko'ra hisoblab, podsho haqi talab qilardi. O'sha paytda (ya'ni, 20-asr boshlarida) amaldorlar davlatdan maosh olmagan va barcha xarajatlarini dehqon hisobidan undirgan. Birinchi sabab amaldorlarning adolatsizligi bo'lsa, ikkinchi va uchinchi sabablarning yuzaga kelishi ham dehqonlarning o'zlariga bog'liq edi.

Dehqonlar qo'llagan asbob-uskunalar va ekin yetishtirish usullari Hazrati Odam Ato dehqonchiligidan farq qilmas edi. Chunonchi, o'sha davrda Yevropa davlatlari o'zlarining yirik shaharlarida qishloq xo'jaligi maktablarini ochib, farzandlarini shu maktablarga qishloq xo'jaligi fanlaridan tahsil olishini ta'minlaganlar. Bizning dehqonlari esa "dehqonchilik maktabi"

¹ Hakimov N.H., Amridinova D.T. Turkiston jadidlarining iqtisodiy qarashlari. Falsafa-Siyosat. 2022/№2.-B.42

² Fitrat A. Jadid adabiyoti namayondalari. Zabarjad media.T.:2024. - B.110-167

³ Fitrat A. Jadid adabiyoti namayondalari. Zabarjad media.T.:2024. -B.205.

⁴ Davlyatova G.M. Jadidlar qarashlarida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ularning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni. International journal of theoretical and practical research. Year: 2022 Issue: 4 Volume: 2.-B.19.

tushunchasini xayoliga ham keltirmagan. Yevropaliklar yerga quvvat baxsh etadigan hayratlanarli dorular ishlab chiqargan bo'lsalar, Buxoro dehqonlari esa hali ham eskicha uslubda edilar. Yevropa dehqonlari yerni shudgorlash uchun mashinalarga ega bo'lib, bu mashinalar bir kunda bir necha tanob yerni haydash qudratiga ega edilar. Buxoro dehqonlari esa ikkita ho'kizni qo'shib katta mashaqqatlar bilan bir tanob yerni kunlab shudgor qilar edilar.

Fransiya dehqonlari bug'doy yanchish uchun alohida mashina yasab olishgan bo'lsalar, Buxoro dehqonlari esa, bu ishni bajarish uchun bir necha xo'kiz, eshakka muhtoj edilar. Shuning uchun ham Turkistonliklar yerdan unumli foydalanisha olmas edilar.

F.Xo'jaev Buxoroda yerga ishlov berishni zamonaviy texnika asoslariga ko'chirish, bu esa dehqonchilikni intensivlashtirish, qishloq xo'jaligiga yangi texnologiyalarni joriy etish imkonini beradi, deb ko'rsatdi. Jumladan, bu Buxoro zaminida ham Misr, Amerika kabi mamlakatlardagi qishloq xo'jaligi tizimlari, mashinalar majmuasini qo'llashga olib keladi. U ilg'or texnologiyani qo'llashning tajriba dalalarini va mashina prokat punktlarini tashkil etish, ilg'or tajribani ommalashtirish, maktablar tashkil etib, ularga darslar uyushtirish, qishloq xo'jaligiga oid adabiyotlarni chop etib tarqatish, qishloq xo'jaligi rivojlangan mamlakatlarga ekskursiya va xizmat safarlariga yuborish yaxshi natijalar keltiradi, deb uqtiradi.

Abdulxamid Cho'lponning Vatan, ona yer haqidagi qarashlari g'oyat ibratli va ta'sirchandır: "...Vatan tuproqi shundog' onadurki, buni xor qilduk, o'zimizning ham xor bo'lmoqimiz ko'z oldidadur... Tuproqdan yaratilduk, demak tuproq tanimizdir, o'z tanimizni o'zimiz sotsak, beaqlilik emasmu? Ajabo!!!..." Yer resurslaridan ratsional foydalanishga qaratilgan bunday da'vat, tabiiy resurslarning inson hayoti va iqtisodiy faoliyatidagi ahamiyati, milliy boylik yaratilishidagi asosiy manba, millat, yosh avlodning kelajagini ta'minlaydigan omil ekanligiga ishora qiladi.

Agrar sohada insonlarning bilimlarini va qotib qolgan tafakkur tarzini o'zgartirish lozimligini jadidlar juda yaxshi anglaganlar. Keyinchalik Buxoro Xalq Sovet Respublikasi rahbari bo'lgan, jadidchilarning yoshlar qanoti rahbari bo'lgan F.Xo'jayev o'zining agrar sohadagi islohotlarini ham keskin qo'yanligi ahamiyatlidir. F.Xo'jaev Buxoro qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalasidagi davlat dasturi ishlab chiqish lozimligiga e'tiborini qaratdi va ishlab chiqdi. Dasturdagi umumiqtsodiy tadbirlar quyidagi ishlarni amalga oshirishdan iborat edi: 1) irrigatsiyaga doir butun programmani to'la ravishda bajarish; 2) yerni ishlashning yangi usullarini, dehqonchilik ish qurollarini, urug'larni seleksiya qilishni joriy qilish yo'li bilan yerni ishlashni intensivlashtirish, agropunktlar, qishloq xo'jalik maktablari tashkil etish hamda aholi orasida nazariy bilimlarni tarqatish; 3) xo'jaligi xonavayron bo'lgan dehqonlarga ham qisqa muddatli, ham uzoq muddatli katta qishloq xo'jalik kreditlari berib turish; 4) paxta ekilayotgan maydonlarni kengaytirish va amerika paxtasi ekishni har tomonlama rag'batlantirish yo'li bilan paxtaning shu navlarini ekishga asta-sekin o'tish; 5) qorako'lchilarni soliqlardan ozod qilish bilan bir qatorda, ularga keng ravishda kreditlar berib turish; 6) aholi qurt urug'i tarqatish va qurt urug'i yetishtirib beradigan stantsiyalar tashkil etish yo'li bilan pillachilikni qayta tiklash choralari ko'rish.

Yuqoridagi fikrlardan Iqtisod fanlari doktori Davlyatova.G.M shunday xulosaga keladi: "Xo'jaev Buxoro qishloq xo'jaligini rivojlantirish omillaridan bo'lgan irrigatsiya va melioratsiya ishlarini avj oldirish, qorako'lchilarni soliqlardan ozod qilish bilan bir qatorda, ularga keng ravishda kreditlar berib turish orqali qorako'lchilikni rivojlantirish haqida gapirib, uni Yevropa bozorlariga chiqarishni davlat yo'li bilan yengillashtirish, bu qimmatbaho xom-ashyoni kontrabanda yo'li bilan chetga chiqib ketishiga chek qo'yajagini uqtiradi. Shuningdek, u ipak qurti urug'i yetishtirishni yaxshilash yo'li bilan mamlakatda pillachilikni rivojlantirishga oid takliflarni ham ilgari surgan edi"¹. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa xalqning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash orqali ularni faravon hayotini ta'minlash bo'lgan. Agrar soha masalasida A.Fitrat islohot loyihasini ishlab chiqqan. Bu loyihadagi yerlarning toifalarga bo'linishi, ularga egalik qilish tartibi, soliqlarning tartibga solinishi va ba'zi soliqlarning bekor bo'lishi nazarda tutilgan. Masalan, «kafsan» (mahalliy qishloq ma'muriyati (amin, oqsoqol va boshqalar) foydasiga dehqonlardan olinadigan soliq), «atayati» (sadaqa), «uskuna puli» (turli daraxtlar uchun to'lanidigan pul), «cho'p puli»

¹ Davlyatova.G.M. Jadidlar qarashlarida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ularning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni. International journal of theoretical and practical research. Year: 2022 Issue: 4 Volume: 2.-B.19.

(yaylovlardan foydalanganlik uchun olinadigan soliq), «ko'tara boqi» deb nomlangan «xashar» chiqimlari tugatilishi nazarda tutilgan.

Loyihaning yerga egalik va qishloq xo'jalik masalalariga doir qismidagi ikkinchi asosiy maqsad qishloq xo'jalik mahsulotlarini ko'paytirish, ekin maydonlarini kengaytirish va dehqonchilikni intensivlashtirish to'g'risida g'amxo'rlik qilishdan iborat deb belgilangan. Loyihada juda ko'p iqtisodiy masalalar nazarda tutilga bo'lib, o'sha davr shart-sharoiti ularni amalga oshirishga imkon bermagan.

Jadidlar bundan tashqari tog' kon sanoatini ham rivojlantirishni maqsad qilgan edilar. Turkistonda iqtisodiy taraqqiyotga, farovon va obod yashashga olib keluvchi boshqa yo'llar borligi haqida Abdurauf Fitrat ham o'zining "Hind sayyohi bayonati" asarida yozgan. Ana shulardan biri "ihroj sanoati", ya'ni yer osti boyliklarini qazib olish va "a'mol sanoati", ya'ni uskunalar (fabrika va zavodlar) yaratishdir. Turkiston o'lkasi bag'rida oltin, mis, temir, neft, gaz, toshko'mir va boshqa tabiiy boyliklar mavjudligini, ularni ishga solish orqali xalq qashshoqlikdan, iqtisodiy qaramlikdan xalos bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Ishoqxon Ibratning "Tarixi madaniyat" risolasida mamlakatni tog'-kon sanoatini yo'lga qo'yish kerakligi haqida o'z qarashlarini bildirgan. Chunonchi, bu konlarni ishga tushirish orqali xorij talablariga mos ravishda mahsulot ishlab chiqarish va bu mahsulotlarni sotish orqali mamlakat iqtisodiyotini ta'minlash hamda mamlakatni jahonga tanitish taklifi bilan chiqadi: "Mana tog'larimizda bo'lsa oltindan boshlab kumush, mis, temir, cho'yan va qo'rg'oshimgacha bor, joy-rangvor bo'ladurg'on nimanarsalardan konlar ko'p. Qorazakiy bir tog' butun ... achchiq toshlar va dahanfarang nimanarsalarni koni bor. ...Bu konlarni bag'rimizga bosib yotub, tasarrufini qilolmasak bizga ancha nuqson bo'lur edi"¹.

Jadidlar mamlakatda savo-tijorat ishlari, dehqonchilik va kon sanoati, umuman olganda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilash uchun ko'plab islohotlar loyihalarini ishlab chiqdi. Jadidlar vaziyatdan kelib chiqib, qishloq xo'jaligida o'zgarishlarni amalga oshirish uchun davlat darajasida siyosiy va amaliy harakatlarni boshladilar. Skobelev, Qo'qon va Toshkent shaharlarida yig'ilishlar o'tkazilib, unda paxta uchun belgilangan narxning maqsadga muvofiqligi masalasi ko'rib chiqildi. Ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, dehqonlar, jadidchilik vakillari ishtirok etgan bu yig'ilishlar qizg'in bahs va tortishuvlarga sabab bo'lib, ularda musulmonlarning qo'li baland edi. Paxta narx belgilashda ham hudud sharoitidan kelib chiqish belgilab qo'yilgan. Lekin bu islohot loyihalarini vaqtda o'tkazish imkoni bo'lmadi. Shunday bo'lsa ham o'sha davrdagi islohiy loyihalarining qadr-qimmati hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

Xulosa. Jadidchilar o'lka iqtisodiy muammolarini tanqid qilib, mustaqil taraqqiyot yo'llarini taklif etadi. Shuningdek, Turkistonning tabiiy resurslardan samarali foydalanish, milliy hunarmandchilikni rivojlantirish va xorijiy sarmoya jalb qilish zarurligini ta'kidlaydi. Jadidlar qishloq xo'jaligi sohasida mavjud muammolarni aniqlab, amaldorlar va eski usullarni tanqid qiladi, dehqonlarni zamonaviy bilimlar va texnikalar bilan ta'minlash zarurligini o'rgatadi.

Buxoro agrar islohotlari, masalan, F.Xo'jaev tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar bilan davom etadi, bu dasturlar irrigatsiya, dehqonchilik usullarini takomillashtirish va qishloq xo'jalik kreditlari berish orqali xalqning farovonligini oshirishni maqsad qiladi. Jadidlar, shuningdek, kon sanoatini rivojlantirish va savdo-sotiqni yaxshilash uchun ko'plab islohotlar rejalashtirganlar.

Umuman olganda, Jadidlar Buxoroning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti uchun zaruriy islohotlarni amalga oshirishga intiladilar, bu esa ularning xalqni rivojlantirishga bo'lgan kuchli e'tiboridan dalolatdir.

Foydalanilgan adaboyitlar:

1. Hakimov N.H. , Amridinova D.T. Turkiston jadidlarining iqtisodiy qarashlari. Falsafa-Siyosat. 2022/№2.-B.42
2. Fitrat A. Jadid adabiyoti namayondalari. Zabarjad media.T.:2024.- B.110-167

¹ Ibrat I. Tarixi madaniyat. O'z RFASHI.Q. inv № 11616, № 10117. B 128.

3. Davlyatova.G.M. Jadidlar qarashlarida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ularning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'рни. International journal of theoretical and practical research. Year: 2022 Issue: 4 Volume: 2.-B.19.

4. Ibrat I. Tarixi madaniyat. O'z RFASHIQ: inv № 11616, № 10117. -B 128.

5. Ikromovich, P. X. (2023). Jadid ma'rifatparvarchiligi shakllanishidagi tarixiy shart-sharoit va obektiv zaruriyat. Finland International Scientific Journal of Education. Social Science & Humanities, 11(3), 167-179.

6. Патиев, Х. (2023). ЖАДИДЧИЛИК ҚАРАШЛАРИ НЕГИЗИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЖАМИЯТДА РИВОЖЛАНИШИ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences, 3(11).